



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шоқир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозогистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб


Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Гулчеҳра Агзамова АШТАРХОНИЙЛАР СУЛОЛАСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА АҲОЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲВОЛИГА ОИД АЙРИМ МАСАЛАЛАР (17-18-ЮЗЙИЛЛИК ЎРТАЛАРИ).....	5
2. Ильдар Азизов РАЗВИТИЕ МЕЖПАРЛАМЕНТСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА ОЛИЙ МАЖЛИСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН С ПАРЛАМЕНТСКОЙ АССАМБЛЕЕЙ ОБСЕ.....	13
3. Farangis Azimova ЎРТА АСРЛАРДА ДАШТИ ҚИПЧОҚДА ЮЗ БЕРГАН СИЁСИЙ-ЭТНИК ЖАРАЁНЛАРНИНГ АМУДАРЁ – СИРДАРЁ ОРАЛИГИДАГИ ВОҲАЛАРГА ТАЪСИРИ..	19
4. Феруза Амонова XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ҚОРАҚЎЛЧИЛИК ТАРИХИ (БУХОРО АМИРЛИГИ МИСОЛИДА).....	28
5. Ikrom Djurayev MARKAZIY OSIYODA QADIMGI KO‘CHMANCHI VA O‘TROQ AHOLINING O‘ZARO MUNOSABATLARI.....	34
6. Фарходжон Исматуллаев O‘ZBEKISTONNING YEVROPA ITTIFOQI BILAN HAMKORLIK ALOQALARI TARIXSHUNOSLIGINING AYRIM JIHLTLARI.....	41
7. Dilshod Komolov, Shodiyor Do‘smurodov O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PROKURATURA IDORALARINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI (1991-2000 yillar misolida).....	49
8. Dilshod Komolov, Murodali Xamdamov O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD TIZIMINING RAQAMLASHTIRILISHI.....	56
9. Pyosbek Mamatkarimov SOSIALISTIK REALIZMNING O‘ZBEK ADABIYOTIGA KIRIB KELISHI TARIXI.....	64
10. Yosin Ortiqov, Ra’no Ergasheva QO‘QON SHAHRI TARIXI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	69
11. Ибрагимжан Ташматов РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ В УЗБЕКИСТАНЕ (История и современность).....	74
12. Aziza Shotemirova IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA SANOAT KORXONALARIDA O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING O‘RNI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	80



Dilshod Pulatovich Komolov,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası professori
tarix fanlari doktori(DSc),
Shodiyor Sobirovich Do'smurodov,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası magistranti

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PROKURATURA IDORALARINING
TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI
(1991-2000 yillar misolida)**

For citation: Dilshod P. Komolov, Shodiyor S.Do'smurodov. HISTORY OF THE ORGANIZATION OF THE PROSECUTOR'S OFFICE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN (An example of 1991-2000). Look to the past. 2025, vol. 8, issue 1, pp.49-55

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14803472>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 1991-2000 yillarda O'zbekiston Respublikasida prokuratura idoralarining tashkil topishi va rivojlanishi tarixiy manbalar hamda meyoriy-huquqiy hujjatlarni qiyosiy tahlil qilish asosida yoritib berilgan. Jumladan, prokurorlarning siyosiy partiyadan xoli qilinishi, prokuratura idoralarining nazariy-huquqiy asoslarining ishlab chiqilishi, tizimdagi kadrlar masalasi, soha vakillarining respublika hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan olib borgan faoliyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik, konstitutsiya, qonun, Adliya vazirligi, kadrlar masalasi, klass darajasi, huquqiy madaniyat, qonun ustuvorligi.

Дилшод Пулатович Комолов,
Университет экономики и педагогики
Профессор кафедры Истории и социальных наук
доктор исторических наук(DSc),
Шодиёр Собирович Дусмуродов,
Университет экономики и педагогики
Магистрант кафедры Истории и социальных наук

**ИСТОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОКУРАТУРЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН
(На примере 1991-2000 гг.)**

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе исторических источников и сравнительного анализа правовых документов освещено становление и развитие прокуратуры в Республике Узбекистан в 1991-2000 годах. В частности, отстранение прокуроров от политических

партий, разработка теоретических и правовых основ прокуратуры, кадровый вопрос в системе, деятельность представителей сферы по четкому и единообразному исполнению законов на территории республика была выделена.

Ключевые слова: независимость, конституция, закон, Министерство юстиции, кадровый вопрос, классовый уровень, правовая культура, правопорядок.

Dilshod P. Komolov,

University of Economics and Pedagogy

Professor of the Department of History and Social Sciences,

Doctor of Historical Sciences(DSc),

Shodiyor S. Do'smurodov,

University of Economics and Pedagogy

Master's student of the Department of History and Social Sciences

HISTORY OF THE ORGANIZATION OF THE PROSECUTOR'S OFFICE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN (An example of 1991-2000)

ABSTRACT

In this article, the establishment and development of prosecutor's offices in the Republic of Uzbekistan in 1991-2000 is covered based on historical sources and a comparative analysis of legal documents. In particular, the removal of prosecutors from political parties, the development of the theoretical and legal foundations of prosecutor's offices, the issue of personnel in the system, the activities of representatives of the field on the clear and uniform implementation of laws on the territory of the republic have been highlighted.

Index Terms: independence, constitution, law, Ministry of Justice, personnel issue, class level, legal culture, rule of law.

1. Dolzarbligi:

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan prokuratura organlari zimmasiga ko'plab vazifalar yuklatilmoqda hamda mamlakatning barcha sohalari qatori, prokuratura tizimida ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda, prokuratura organlarini tom ma'noda xalqqa xizmat qiladigan huquq-tartibot idorasiga aylantirish choralari ko'rilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 19-dekabrda qonuniga muvofiq, 8-yanvar O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuni etib belgilandi. Bu prokuratura organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirishga, soha xodimlari mehnatini rag'batlantirishga xizmat qildi. Buning natijasida prokuratura organlari tomonidan mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarga hamohang tarzda jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta'minlash, jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi huquq-tartibot sohasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jarayonida davlatchilik tarixining ajralmas qismi bo'lgan prokuratura idoralari tarixini o'rganish va tadqiq etish tarix fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

2. Tadqiqot metodologiyasi:

Ushbu maqola tarixiy metodlar-tarixiylik, tanqidiy, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda prokuratura idoralarining shakllanish tarixi tarixiy tadqiqotlar nuqtai nazaridan yaxlit ilmiy muammo sifatida o'rganilmagan.

3. Tadqiqot natijalari:

XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmiga kelib sovet davlati siyosiy va iqtisodiy jihatdan tanazzulga yuz tutgan edi. Mustabid tuzum o'z hukmronligini saqlab qolish maqsadida ittifoqdosh respublikalaraga kuch ishlatuchi tuzilmalarini yubora boshladi. Jumladan, O'zbekiston SSR prokuraturasi "desantchilar" hisobiga kelgindi kadrlar bilan to'ldirilgan edi. Ushbu davrda O'zbekiston prokurori, respublika rahbariyati bilan maslahatlashilmagan holda SSSR Bosh prokurori tomonidan tayinlanar edi. Markaz va SSSR Bosh prokuraturasi o'zlarining bu

vakolatlaridan keng foydalanishgan. Buning natijasida, 1985-1988 yillarda O‘zbekiston prokuratura idoralaridan 197 kishi ishdan bo‘shatildi, 19 kishi jinoiy javobgarlikka tortildi. Viloyat, shahar va tuman prokurorlarinig ko‘pchiligi faqat birinchi muddat orasidagina o‘z vazifalarini ado etayotganlar edi[1]. Bir so‘z bilann aytganda, O‘zbekiston SSR prokuraturasining yuqori lavozimlaridan tortib, viloyat, tuman prokurorlarigacha markazdan doimiy ishlashga yuborilgan vakillar bilan almashtirildi. O‘zbekiston prokuraturasiga tashlangan “sotsialistik desantchilar”ning soni esa yuzdan ortiq edi. Shu tariqa hayotda qonunsizlik tantana qilgan, adolatga esa ishonch yo‘qolgan edi.

1990-yil O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan bu holatga chek qo‘yishga kirishildi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining faqat O‘zbekiston Respublikasi Parlamenti va Prezidenti oldidagi hisobdorligi va javobgarligi haqidagi huquqiy norma qabul qilindi. Jumladan, 1990-yil 31-oktabrda O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining XII chaqiriq uchinchi sessiyasida O‘zbekiston Prezidenti tavsiyasi bilan respublika prokurorining ittifoq prokuroriga qaramligiga barham berish va bu tizimning mustaqilligini ta‘minlash maqsadida Bo‘ritosh Mustafoyev O‘zbekiston SSR prokurori etib tasdiqlanadi[2, -B.257]. Bu O‘zbekiston tarixida birinchi marta respublika prokurorining mamlakat oliy organi tomonidan tasdiqlanishi edi.

Bundan buyon, Qoraqalpog‘iston ASSR prokurori avtonom Respublika parlamenti tomonidan O‘zbekiston SSR Prezidenti bilan kelishilgan holda tayinlanishi qonunchilik bilan mustahkamlandi. Bundan tashqari, ilgari viloyatlar va tuman, shaharlar prokurorlari SSSR Prokuraturasining roziligi bilan tayinlangan bo‘lsa, endi qonun bo‘yicha kadrlar masalasini hal qilish respublika prokurorining mutloq vakolatiga tegishli ekanligi qayd etildi. Va nihoyat, respublika prokuratura xodimlarining to‘liq mustaqilligi, shu jumladan, SSSR prokuraturasidan ham to‘liq mustaqilligi, faqat ularning O‘zbekiston SSR Prokurorigagina bo‘ysunishi e‘lon qilindi. Yuqoridagi qonun qabul qilingan kun ya‘ni, 1990-yilning 1-noyabr kuni O‘zSSR prokurori lavozimiga milliy kadr - B.M. Mustafoyevni tayinlash haqida O‘zSSR Oliy Sovetining qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentimiz I.Karimov Bo‘ritosh Mustafoyevni respublika prokurori lavozimiga tavsiya etish oldidan O‘zbekiston qonunlarining ustuvorligini ta‘minlash, halq manfaatlarini himoya qilish, ayniqsa, “paxta ishi” bo‘yicha qatag‘onga uchragan, nohaq jazolangan fuqarolarning huquqini tiklash borasida bir qator ko‘rsatmalar beradi. Shuningdek, Markazdan kelgan prokuratura xodimlarini qaytarib yuborish masalasiga ham alohida urg‘u berildi[2,-B.257]. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tashabbusi bilan amalga oshirilgan bu ish respublika prokuroriga mustaqil faoliyat yuritish, prokuratura organlarini nomunosib kadrlardan tozalash imkoniyatini yaratdi. Shundan so‘ng prokuratura hay‘ati majlislari davlat tilida o‘tkazila boshladi, barcha ish hujjatlarini ham o‘zbek tilida yuritish tartibi yo‘lga quyildi.

Bu esa nafaqat Markazdan kelgan xodimlarning, balki partiya Markazqo‘midagi Moskva vakillarining ham noroziligini keltirib chiqaradi. Yefimov va Velikanov bir necha bor O‘zbekiston Prokuroriga telefon qilib, uning bu ishi “millatchilik” ekani, rusiyzabon xodimlar huquqini poymol qilish ekanini aytib, unga do‘q-po‘pisalar qilishadi. O‘zbekiston SSR prokurori Bo‘ritosh Mustafoyev esa ularga javoban, bu harakatlar mamlakatda qabul qilingan qonunlar asosida, qolaversa, respublika rahbarining qatiy talabiga ko‘ra amalga oshirilayotganini aytadi.

1991-yil fevralda M.S.Gorbachev topshirig‘iga ko‘ra SSSR prokuraturasi kollegiyasi chaqiriladi va unda O‘zbekiston prokurorining hisobotini eshitish rejalashtiriladi. B.Mustafoyev kollegiya yig‘ilishida o‘z hisobotida “Paxta ishi” natijasida O‘zbekistonda inson huquqlari poymol qilingani, aybsiz kishilarning qadr-qimmatini oyoq osti etilgani, olib borilgan qatag‘on natijasida respublika qishloq xo‘jaligi boshkaruvining kadrlar korpusi jiddiy zararlangani, bu ishlarning asosiy aybdorlari hamda ularning hamtovoqlari hamon jazosiz qolayotgani, Markazning va SSSR Bosh prokuraturasining respublikaga malakasiz, mas‘uliyatsiz kadrlarni yuborish siyosati prokuratura organlari faoliyatiga jiddiy zarar yetkazgani ochiqdan-ochiq aytiladi. Shu tariqa O‘zbekiston Prokurori B. Mustafoyev uch kunlik kollegiyaning tugashini ham kutmay, uning birinchi kuniyok Toshkentga qaytib keladi[2, -B.260].

O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida O‘zbekiston SSR Prokuraturasi kollegiyasining kengaytirilgan majlisi bo‘lib o‘tdi. Majlisda birinchi yarim yillik ish yakunlari muhokama qilindi. Jumhuriyat prokurori B.M.Mustafoyev ma‘ruzasida respublikada jinoyatchilikning, ayniqsa, uning og‘ir turlarining ko‘payishi muammosi tobora keskinlashib borayotganligi ta‘kidlanadi: “Bunday jinoyatlar soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 25 % ko‘paydi. Olti oy ichida jinoyatchilikning o‘ssishi jami 10,6 foizni tashkil qiladi. Namangan, Andijon, Farg‘ona, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida jinoyatchilik, ayniqsa, ko‘p bo‘ldi. O‘smirlar 2500 martadan ko‘proq jinoyat sodir etishdi. Jinoyatlarni fosh etish ko‘rsatkichi tashvishli bo‘lib, har uch jinoyatning bittasi ochilmay qoldi. Ko‘pgina viloyatlarda, ayniqsa, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Jizzax va Farg‘ona viloyatlarida, shuningdek, Toshkent shahrida huquqni muhofaza qilish ishlari o‘zgargan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvolning yangi sharoitlariga qarab qayta o‘rganilmaganligi ta‘kidlab o‘tiladi. Tergov ishlarining sifati yaxshilanmayotgani, respublika prokuraturasi ichki ishlar idoralari bilan kelishilgan holda qasdan odam o‘ldirish singari o‘ta og‘ir jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish samarasi O‘zbekiston SSSR Prokuraturasida bajarilmaganligi ta‘kidlab o‘tiladi” [3].

Mustaqillik arafasida mamlakatda vujudga kelgan ahvolni e‘tiborga olib va respublika manfaatlarini himoya qilish maqsadida 1991-yil 25-avgustda O‘zbekiston SSR Prezidentining farmoni e‘lon qilindi. Farmonda “O‘zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligi, Davlat Xavfsizlik kometeti, Prokuraturasi va adliya idoralari, shuningdek, respublika hududida joylashgan ichki qo‘shinlar Turkiston harbiy qismlari va qo‘shilmalari partiyadan holi qilinishi qat‘iy qilib belgilandi[4, -B.5]. Chunki Sovet davridagi kommunistik partiyaning yagonaligi va yetakchiigiga barham berish, uning totalitar tuzimidan voz kechish asosiy masala qilib qo‘yildi.

1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning 3-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi to‘la davlat hokimiyatiga ega, o‘zining milliy-davlat va ma‘muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi”, degan qoida mustahkamlab qo‘yildi[5].

1992-yil 8-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi organlari to‘g‘risida”gi PF-313-son farmoni qabul qilindi[6]. Farmonda ta‘kidlanganidek, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlar aniq va bir xil ijro etilishi ustidan oliy nazoratni ta‘minlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini, respublika suverenitetini himoya qilish maqsadida Ittifoq qaramog‘idagi O‘zbekiston SSR prokuraturasi O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasiga aylantirildi. Respublika hududida ish yuritayotgan O‘rta Osiyo transport prokuraturasi, uning organlari negizida viloyat prokuraturasi huquqiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Transport prokuraturasi tashkil etilib, u O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasiga bo‘ysundirildi[6].

Mudofaa ishlari vazirligida, uning joylardagi boshqarmalari va bo‘limlarida hamda respublika hududida joylashgan ichki qo‘shinlarda qonunlarning ijrosi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi prokurori zimmasiga yuklatildi. Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi to‘g‘risida”gi qonun loyihasini bir oy muddat ichida tayyorlab, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashiga ko‘rib chiqishi uchun taqdim etish vazifalari belgilandi.

1992-yil 8-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi prokuratura idoralari xodimlariga klass darajalari berish to‘risida”gi PF-386 sonli Farmoni e‘lon qilindi. Farmonga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi idoralarining xodimlariga klass darajalarini, shu jumladan adliya katta maslahatchisi unvonini berish O‘zbekiston Respublikasining prokurori tomonidan, 3 klassdagi Davlat adliya maslahatchisi va undan yuqori unvonni berish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi[7, -B.33.].

1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. O‘zbekiston tarixida ilk marotaba Asosiy Qonunda Prokuratura haqida alohida bob ajratildi.

Konstitutsiyaning XXIV bobi Prokuratura deb nomlanib, 118-121-moddalarni o‘z ichiga olgan edi. Jumladan, 118-moddada: “O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi”, deya bayon etilgan edi[8, -B.34.].

1992-yil 9-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun 5 bo‘lim, 4 bob, 56 ta moddadan iborat edi[9]. Qonunning 12- moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi tizimiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 5 yil muddatga tayinlanib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tasdiqlaydigan O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori boshchilik qilgan. Bosh prokuror O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisi oldida hisobdordir deb belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini qonuniylik va huquq-tartibotning ahvoli to‘g‘risida muntazam xabardor etib, besh yilda kamida bir marta O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga o‘z faoliyati haqida hisobot taqdim etib borgan.

O‘zbekiston Respublikasi prokuratura idoralarining tizimi O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shaharlar va tumanlar, tumanlararo va boshqa hududiy prokuraturalardan iborat edi. O‘zbekiston Respublikasi prokuratura idoralarining tizimiga, shuningdek transport, harbiy, tabiat muhofazasi prokuraturalari va boshqa ixtisoslashtirilgan prokuraturalar ham kirgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyatining oliy organi tomonidan 5 yil muddatga tayinlangan va ular oldida hisobdor edi. Viloyat, Toshkent shahri, tuman, shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan 5 yil muddatga tayinlangan va lavozimidan ozod etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori (rais), uning birinchi o‘rinbosari, o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, O‘zbekiston Respublikasi harbiy prokurori, prokuratura idoralarining boshqa rahbar xodimlaridan iborat tarkibda hay‘at tuzilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasida bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo‘limlar tuzilib, ularda katta prokurorlar va prokurorlar faoliyat yuritgan. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori katta yordamchilar, maxsus topshiriq bo‘yicha yordamchilar va yordamchilarga ega edi[9].

Prokurorlarni lavozimidan ozod etish Prokuratura idoralari xodimlarini rag‘batlantirish va ularning intizomiy javobgarligi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilgan.

Qonunning 48-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining oliy yuridik ma‘lumoti bor va zarur kasb-korga hamda axloqiy fazilatlariga ega bo‘lgan fuqarolari prokuror etib tayinlanishi mumkin edi. Prokuratura idoralarida lavozimga birinchi marta tayinlangan shaxslar qasamyod qilgan. Qasamyod matni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlangan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman, shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar lavozimiga yoshi 25 dan kam bo‘lmagan shaxslar tayinlangan. Prokurorlar ilmiy, pedagogik va ijodiy faoliyatdan tashqari pulli yuridik xizmat ko‘rsatishga, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda o‘rindoshlik asosida ishlashi qat‘iyan ta‘qiqlangan edi[9].

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriining 1993-yil 30-apreldagi “Prokuratura organlarida kadrlarni tanlash, tayinlash va tarbiyalash to‘g‘risida”gi 3-sonli buyrug‘i asosida kadrlar tarkibi yangilab borildi. Masalan, 1993-yilda Toshkent shahar prokuraturasida mehnat qilayotgan xodimlarning 27 foizi yosh mutaxassislar, shu jumladan, 16 nafari ish o‘rganuvchilar edi[10].

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan 1994-yil 14-iyulda “Sudlarda fuqarolik va xo‘jalik ishlari ko‘rilishida prokuror vakolati ta‘sirchanligini oshirish haqida”gi buyrug‘i imzolangan. O‘zbekiston Respublikasi prokurorining 1997-yil 3-iyuldagi 312-sonli buyrug‘iga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi tizimida sudlarda xo‘jalik ishlari ko‘rilishida prokuror vakolatini ta‘minlash bo‘limi tashkil etilganligi munosabati bilan “Sudlarda fuqarolik va

xo‘jalik ishlarini ko‘rilishida prokuror vakolatini ta‘minlash bo‘limi”ning nomi “Sudlarda fuqarolik ishlarini ko‘rilishida prokuror vakolatini ta‘minlash bo‘limi” deb o‘zgartirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi hamda “O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuni”ga asosan prokuratura idoralari oldiga ham ulkan vazifalar qo‘yildi. Respublika hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo‘sunib amalga oshiriladi. Qonun oldida barcha barobardir. Umum manfaatidan o‘z manfaatini yuqori qoyayotgan mansabdor shaxslar ham qilmishlariga yarasha javob berishlari muqarrardir. Jumladan, 1996-1997 yillar mobaynida respublika prokuratura idoralari tomonidan 116 nafar yuqori darajadagi mansabdor shaxs ogohlantirildi. Ulardan uch nafari vazir, 26 nafari esa respublika ahamiyatiga ega bo‘lgan korxonalar, konsern va davlat qo‘mitalarining rahbarlari, 6 nafari esa viloyat, tuman va shahar hokimlari edi[11].

Og‘ir jinoyat sodir etgan shaxslarga, jinoiy guruhning tashkilotchilari va faol ishtirokchilariga, muqaddam sudlanganlarga qonun doirasida qattiq jazo choralarini qo‘llash bilan keyingi yillarda jinoyatchilikning og‘ir turlari hisoblangan uyushgan jinoyatchilik, tovlamachilik, avtomobillarni olib qochish kabi jinoyatlarning keskin kamayishiga erishildi va respublikadagi kriminogen vaziyat yaxshilandi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasida 1991-yilda 88630 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lsa, 1992-yilda 93626 ta, 1993-yilda 90023 ta, 1994-yilda 73661 ta, 1995-yilda 67026 ta, 1996-yilda 65080 ta jinoyat qayd etilgan[12, -B. 207].

Birgina Toshkent shahar prokuraturasi misolida olib qaraydigan bo‘lsak, 1997-yil mobaynida qonunchilikni mustahkamlash va jinoyatchilikka qarshi kurash hamda fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Toshkent shahrida bosqinchilik jinoyati 8,2%, nomusga tegish 11,5%, transportni olib qochish 8,9%, tovlamachilik 3,6%, transportni o‘g‘irlash 20,8%, o‘zgaralar mulkini ko‘p miqdorda talon-taroj qilish 32,6%, voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi jinoyatchilik 7,7%, poraxo‘rlilik 14,1% kamayishiga erishildi[13].

Shunga qaramasdan, o‘z mansab vakolatini suiiste‘mol qilgan, prokurorlik sha‘niga qora dog‘ tushirgan xodimlar ham tizimda anchagina edi. Bunday shaxslarga qarshi prokuratura idoralari tizimida keskin kurash olib borildi. Jumladan, 2000 yilga kelib prokuratura idoralari kadrlar tarkibida katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. 2000-yil 19-yanvarda Toshkent shahar prokuraturasining hay‘at yig‘ilishida ayrim kadrlar o‘z oldiga turgan yuksak vazifalarni bajarishga tayyor emasligi ta‘kidlab o‘tildi. Shu sabablarga ko‘ra hisobat davrida 5 ta tuman prokurori va 9 ta tuman prokurori o‘rinbosarlari vazifasidan ozod etilib, boshqa pasaytirilgan lavozimlarga o‘tkazilgani, 63 nafar tezkor xodimga nisbatan intizomiy jazo qo‘llanilgani, shundan 10 nafari prokuratura idoralariidan bo‘shatilgani, 3 nafari esa jinoiy javobgarlikka tortilganligi ta‘kidlab o‘tilgan edi[14].

4. Xulosa qilib aytganda, istiqlolning dastlabki o‘n yilligida prokuratura idoralari tashkil etish yuzasidan nazariy-huquqiy asoslar ishlab chiqildi. Kadrlar tarkibi yosh, salohiyatli mutaxassislar hisobiga yangilandi. O‘z vazifasini suiiste‘mol qilgan tizim xodimlariga qarshi keskin kurash olib borildi. Bir so‘z bilan aytganda, prokuratura sohasidagi tizimli islohotlarning amalga oshirilishi va hayotga tadbiiq etilishi mamlakatimizda inson huquqlarining ta‘minlanishiga va aholining adolatga ishonchi ortishiga turtki bo‘ldi.

Iqtiboslar / Сноски / References:

1. Qonun qayta qurishning poydevori // “Sovet O‘zbekistoni”, 1988 yil 26 yanvar. [The foundation of law restructuring // "Soviet Uzbekistan", January 26, 1988.]
2. Azizxo‘jayev A. Chin o‘zbek ishi. Toshkent: O‘zbekiston, 2011. -512 b. [Azizkhodjayev A. Pure Uzbek case. Tashkent: Uzbekistan, 2011. -512 p]
3. O‘zbekiston SSR Prokuraturasida // “Sovet O‘zbekistoni” gazetasi, 1990 yil 16 avgust. [In the Prosecutor's Office of the Uzbek SSR // "Soviet Uzbekistan" newspaper, August 16, 1990.]

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. Toshkent, 1991-yil 30 oktabr № 10 –B. 5. [Bulletin of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, October 30, 1991 No. 10 -B.]

5. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonuni. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/127899>. [Law of the Republic of Uzbekistan "On the Fundamentals of State Independence of the Republic of Uzbekistan". Electronic source: <https://lex.uz/docs/127899>.]

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi organlari to‘g‘risida”gi PF-313-son farmoni. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/147159>. [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-313 "On the Bodies of the Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan". Electronic source: <https://lex.uz/docs/147159>.]

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. Toshkent, 1992 yil iyun. № 6 (1194). –B. 33. [Bulletin of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, June 1992. No. 6 (1194). –P. 33.]

8. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 1992. –B. 34. [Constitution of the Republic of Uzbekistan. Tashkent: Uzbekistan, 1992. –P. 34.]

9. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuni. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/147159>. [Law of the Republic of Uzbekistan “On the Prosecutor's Office”. Electronic source: <https://lex.uz/docs/147159>.]

10. Haqnazarov B. Qonun ustivorligiga erishish-muqaddas ish // “Huquq” gazetasi, 1998 yil 28 yanvar [Haqnazarov B. Achieving the rule of law is a sacred task // “Huquq” newspaper, January 28, 1998]

11. Islomov D. Korrupsiya yetkazgan iqtisodiy zarar // “Huquq” gazetasi, 1998 yil 15 aprel. [Islamov D. Economic damage caused by corruption // “Huquq” newspaper, April 15, 1998.]

12. O‘zbekistonning yangi tarixi. 3-kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi // Tuzuvchilar: N.Jo‘rayev, T.Fayzullayev va boshq.– Toshkent: Sharq, 2000. [New history of Uzbekistan. Book 3. History of Independent Uzbekistan // Compiled by: N.Jurayev, T.Fayzullayev and others – Tashkent: Sharq, 2000.]

13. Haqnazarov B. Qonun ustivorligiga erishish-muqaddas ish // “Huquq” gazetasi, 1998 yil 28 yanvar. [Haqnazarov B. Achieving the rule of law is a sacred task // "Huquq" newspaper, January 28, 1998.]

14. Naimov M. Oldinda - yangi vazifalar. // “Huquq” gazetasi, 2000 yil 26 fevral. [Naimov M. Ahead - new tasks. // "Huquq" newspaper, February 26, 2000.]

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000